

TA'LIM OLUVCHILARDA INKLYUZIV TA'LIMGA BO'LGAN EHTIYOJNING SHAKLLANISH OMILLARI

Bahronova Dilobar

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi
Supervisor: Safarova Zarina

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish ilk bosqichlari, inklyuziv ta'limni yurtimizda rivojlantirishning zaruriyati, sabablari va afzalliklari xususida izlanish natijalari berilgan. Maktab, kollej, litsey yoki oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayoni nafaqat bilim olish, balki muloqot qilish, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish va natijada ijtimoiy hayot bilan tanishtirishdan iboratdir. Bu butun jamiyatning nogiron bolalar va kattalarga nisbatan ijobiy munosabatini o'zgartirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Natijalar sifatida inklyuziv ta'limga ehtiyojni kuchaytiruvchi omillar (huquqiy asoslar, kadrlar tayyorgarligi va infratuzilma, ijtimoiy moslashuv hamda hamkorlik) umumlashtirildi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim ehtiyojlari, teng imkoniyat, ijtimoiy moslashuv, umumta'lim maktabi, imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv muhit, UNICEF.

Abstract: This article presents the early stages of developing inclusive education in Uzbekistan and discusses the necessity, reasons, and advantages of advancing inclusive education in the country. The learning process in schools, colleges, lyceums, or higher educational institutions involves not only acquiring knowledge but also communication, the formation of social skills, and ultimately becoming familiar with social life. This serves as an important factor in changing society's attitudes toward children and adults with disabilities in a positive way. As key findings, the factors that increase the need for inclusive education—legal foundations, teacher training and infrastructure, social adaptation, and cooperation—are summarized.

Keywords: inclusive education, special educational needs, equal opportunity, social adaptation, general education school, children with disabilities, inclusive environment, UNICEF.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv ta'lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi.

Inklyuziv ta'lim O'zbekiston Respublikasida ilk bor eksperiment loyihalar sifatida 2005-yildan boshlangan. UNICEF xalqaro tashkiloti loyihasi doirasida 2005-2007 yillarda Qoraqolpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Andijon, Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida tajriba-sinov tariqasida ish olib borilgan, lekin u vaqtlarda imkoniyati cheklangan bolalar to'la-to'kis aniqlanib ta'limga jalb etilmagan. Shuning uchun ishni birinchi bo'lib, yuqorida sanalgan viloyatlarda inklyuziv ta'limga

muhtoj bolalarni aniqlash bo'lgan. Birinchi vazifani o'rganish natijasida, O'zbekistonda ana shu maxsus ta'lim yo'nalishi bo'yicha yetakchi mutaxassislar, tibbiyot xodimlari jalb etilib, o'sha viloyatlarda ta'limga jalb etilmay qolgan bolalarni aniqlab chiqilgan.[2]

UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

UNICEF bilan Hamkorlikdagi yutuqlarimiz:[3]

UNICEF Xalq ta'limi vazirligining defektolog va psixologlarning inklyuziv ta'limdagi roli to'g'risidagi nizomlar loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashdi. UNICEFning ko'magi inklyuziv ta'lim bo'yicha 5 yillik ish rejasi ta'lim sohasining umumiy rejasiga kiritilishini ta'minladi[4]

Omil yo'nalishi	Maqolada tilga olingan dalillar	Ehtiyoj qanday shakllanadi?
Tashkiliy-hamkorlik (UNICEF)	UNICEF doirasida 2005–2007-yillarda tajriba loyihalari; vazirlik bilan hamkorlik; 5 yillik reja	Pilot tajriba va tizimli rejalashtirish natijasida maktablarda inklyuziv yondashuvga talab kuchayadi.
Kadrlar va xizmatlar	Defektolog va psixologlarning inklyuziv ta'limdagi roli bo'yicha nizomlar loyihalari	Mutaxassislar ishtiroki ehtiyojlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashni talab etadi.
Qamrov va ijtimoiy moslashuv	Maktabga qatnamaydigan yoki xavf guruhidagi bolalarga e'tibor; viloyat markazlari; ijtimoiy moslashuv	Bola ta'limdan chetda qolmasligi va moslashuvi uchun inklyuziv muhit zarurati yuzaga keladi.

UNICEF bilan hamkorlikda Istiqboldagi rejalar:

Tanlab olingan mintaqalarda inklyuziv ta'lim uslublarini tajriba sifatida joriy etish uchun Xalq ta'limi vazirligiga texnik yordam ko'rsatish;

Maktabga qatnamaydigan yoki shunday xatarga uchrayotgan bolalarga alohida e'tibor qaratadigan viloyat bolalar rivojlanish markazlarida tegishli o'quv dasturlarini joriy etish;

O'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan va imkoniyatlari cheklangan bolalar oddiy maktablarda bilim olishlari mumkin bo'lishiga qaratilgan alohida dasturlarni «Speshial Olimpiks» ko'magida O'zbekistonda tajriba sifatida joriy etish;

Ta'lim to'g'risidagi qonunda ham “7 yoshdan boshlab barcha bolalar ta'limga qamrab olish kerak” degan modda mavjud bo'lgan. Lekin uni amalga oshirish bo'yicha ish juda izchillik bilan olib borilmagan. Natijada bu bolalar maktab bilan qamrab olinmaganligining birinchi sababi: ota-ona bolasini nogironligidan andisha qilib, nomus

qilib bolalarini berkitgan. Ikkinchidan nogiron bo'lsa, albatta, internatda ta'lim olishi kerak degan qonun bor edi. Sog'lom bolalar orasida ular ta'lim ololmaydi degan tushuncha mavjud bo'lgan. Ota-onalar bo'lsa bag'ridan bolasini chiqargisi kelmagan, ya'ni internatdan chiqargisi kelmagan. Natijada bolalarning yoshi 9-10 yoshda bo'lsalar ham ularning savodi bo'lmagan.[3]

Izlanish natijalari

Maqolada keltirilgan ma'lumotlar (UNICEF hamkorligidagi 2005–2007-yillardagi tajriba-sinov loyihalari, maktabga qamrov va ta'limga teng kirish masalalari) asosida inklyuziv ta'limga ehtiyojni shakllantiruvchi asosiy omillar umumlashtirildi. Quyidagi jadvalda ushbu omillar maqola mazmuni bilan izchil bog'langan holda jamlandi.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o'z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab mutaxassislariga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olibib borilsa abatta ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta'limning samarasi yuqori darajada bo'ladi. [1]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shomaxmudova.R.Sh Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011
2. Xodjayev. B Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent-2017 (188bet)
3. "Ta'lim hamma uchun" Milliy dasturi rejasi Toshkent-2003
4. "Maktablar hamma uchun" - „ Bolalarni qutqaring jamg'armasi"-2002
5. "Ta'lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari" mavzusidagi ilmiy –amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005